

ANTROPONIMLARNING LINGVOMADANIY TADQIQ ETILISHI

Foziljonova Maftunabonu

ADPI, magistranti

Annotatsiya: Tezisda madaniyatning tilimizda namoyon bo‘lishi, til mentaliteti, hamda millat madaniyatning tilda aks etgan o‘ziga xos milliy til xususiyatlari, xususan, antroponimlarning lingvomadaniy xususiyatlarini haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: madaniyat, antroponom, mentalitet, nutqiy muloqot, ismlar, leksika, arxitip

Bilamizki, tilshunoslikda kishi ismlarini o‘rganuvchi bo‘lim onomastika, ya’ni nomshunoslik, kishi ismlari esa antroponimlar deya yuritiladi. Antroponimlar (ism, ota ism, familiya yoki laqab va taxallus)ning yaratilishi muayyan ehtiyoj va qonuniyatlar asosida yuz beradi. Qadim-qadimdan otabobolarimiz chaqaloqqa ism qo‘yishar ekan, uning baxti va omadi ismiga bog‘liq deb hisoblashgan. Ushbu e’tiqod ismlar xosiyatli va xosiyatsiz bo‘ladi, degan qarashni tug‘dirgan. “Chaqaloqqa qo‘yilgan ism uning taqdiriga ta’sir qiladi” deyilgan tasavvurlar davrlar o‘tishi bilan ismni bolaning himoyachisiga, unga qandaydir bog‘langan, unga doimo va bir umr esh, hamdam bo‘lib yuradigan vositaga aylantira borgan³⁸. Darhaqiqat, o‘zbek xalqi qadimdan ism tanlashda so‘z kuchiga, uning bola ruhiyati va tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatishiga ishongan.

Bag‘ishlov ismlarini qo‘yishda sabab chaqaloqning tug‘ilishi, farzandli bo‘lish biror ilohiy, muqaddas kuchning irodasi, ko‘magi, ehsoni deb hisoblanadi va chaqaloqqa o‘scha taxmin qilingan, e’tiqod qilinayotgan narsa, shaxs, tasavvurning nomi ism sifatida beriladi.

Etnologik tushunchalarga nisbat berilgan ismlarda esa, asosan, bolaning etnik kelib chiqishi e’tiborga olinadi. Bunda bolaning qaysi etnik guruhga mansubligini, o‘scha etnos farzandi ekanini, uning o‘tmish ajdodlari o‘scha urug‘ yoki qabilaga mansubligini, chaqaloq o‘shalarning davomchisi ekanini ta’kidlash ko‘zda tutiladi. Bunday etnonimlardan yasalgan ismlar fanda etnoantroponimlar³⁹ deb yuritiladi.

Ota-onalar o‘z farzandining (ayniqsa, qizlarning) kelishgan, chiroyli, go‘zal odam bo‘lib ulg‘ayishini orzu qilishadi. Shu sabali o‘zbek antroponomiyasida go‘zallik motivi bilan bog‘liq ismlar sezilarli miqdorni

³⁸ Begmatov E.A. O‘zbek ismlari ma’nosi. – Toshkent: O‘zME, 2010 (uchinchи nashri). – B. 588.

³⁹ Begmatov E., Uloqov N. O‘zbek onomastikasi (bibliografik ko‘rsatkich). – Namangan, 2008. – B. 134-145.

tashkil etadi: Ism bevosita go'zallik, nafosat tushunchalarini ifoda etuvchi so'zlardan tanlanadi: Ko'r kamoy, Suluvbeka, Suluvnoz, Chiroygul, Barno, Vajiha (go'zal, dilbar), Vajhiya (oy yuzli), Vasilat (ko'r kam, kelishgan), Vasima (chiroyli), Vosil, Vosila (ko'r kam, kelishgan), Jamol, Jamola, Zarofat (ko'r kam, ajoyib), Zebo, Lobar, Malohat, Nafosatxon, Nigora (go'zal), Husniya , Husnijamol, Husnikamol va b. Ism go'zallik ramzi bo'lmish yorug'lik, nur tushunchalarini anglatuvchi so'zlardan tanlanadi, bolani ana shunday xususiyatga ega bo'lsin deb tilashadi: Balqi (barq urgan, yashnagan), Balqin (yaltiroq, chaqnab turuvchi), Bahiya (nurli, ravshan), Zulfinur, Anvar, Anvara, Nizora (go'zallik nuri), Nurbadan, Nurliro'y, Nurliqo, Nurlig'oyat, Shamsinur. ismnинг nominativ asosini hayvonlar va qushlar nomi tashkil qiladi: - hayvonlar nomi: Bo'tako'z, Kiyikjmol, Suvsar, Suyg'un (kiyik), Qunduz, Qundubeka, Qunduzoy, G'azola (kiyik, ohu); - qushlar nomi: Sulgun // Suyqun (qirg'ovul), Qaldirg'och, Qarlig'och, Anduvnoch, To'ti, Maynaxon, To'rg'ay va b.

Xulosa qilib aytganda, antroponimlar lingvokulturologik aspektida o'rganilishi, tadqiq etilishi ushbu yo'nalishning rivojlanoshiga, yangi-yangi bilimlar bilan boyishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR:

1. Begmatov E.A. O'zbek ismlari ma'nosi. – Toshkent: O'zME, 2010.
2. Begmatov E., Uloqov N. O'zbek onomastikasi (bibliografik ko'rsatkich). – Namangan, 2008.
3. Nosirov U. O'zbek tilidagi kishi nomlari haqida badiiv mulohazalar// Ilmiy asarlar. Qarshi -Toshkent